

BODRINGNI SIFATLI URUG'LARINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Yaxshiboyev Dilshod Narzullayevich

Yaxshiboyev Dilshod

Toshkent davlat agrar universiteti mustaqil tadqiqotchi

Ashirova Matluba

matlubaashirova521@gmail.com

+998931748915

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17374172>

Dunyoda bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muxim ahamiyatga ega. Sabzavot maxsulotlarini ko'paytirish va yerdan unumli foydalanish, yangi navlarni yaratish va urug'chiligini yo'lga qo'yish texnologiyalarini ishlab chiqish muximdir. Sabzavotlar ichida bodringdan yuqori hosil va sifatli mahsulot olishda uni maxalliy sharoitlarga mos yo'qolib borayotgan navlarini urug'chiligini tiklash texnologiyasi bo'yicha 2021-2022 yillar davomida o'rganildi. Bunda biz bodringni Marg'ilon 822 va ranniy 645 navlari urug'larini ekib ularni urug'lik uchun yetishtirdik.

Dala tajribalari umum qabul qilingan uslublar asosida olib borildi. Bunda har ikki navni ham ochiq maydonga may oyining birinchi dekadasida ekildi va urug'lik uchun parvarishlash tadbirlari olib borildi.

Tadqiqot natijasida urug'larni unib chiqishi va o'suv fazalarini davomiyligi kuzatildi. Bunda urug'larni 10 va 75 % ga unib chiqishi navlar aro 6-8 kunni tashkil etdi. Bunda navlar orasida katta farqlanish bo'lmadi. Dala unuvchanligi esa nisbatan yuqori Marg'ilon 822 navida 89 % ni tashkil etdi. Ranniy 645 navida esa 86 foizni tashkil qildi.

Bodring urug'larni unib chiqqandan to otalik va onalik gullarini 10 va 75% ga paydo bo'lishi kuzatildi. Tajribada onalik gullarini 10 foizga gulashi Marg'ilon 822 navida 35 kunni, Ranniy 645 navida 31 kunni tashkil etdi. O'simliklarni onalik gullarini 75 foiz gullashi esa Marg'ilon 822 navida 40 kunni, Ranniy 645 navida 35 kunni tashkil etgan (3.1.1-jadval).

Bu ko'rsatkich albatta o'simliklarga tashqi muxit omillarining ijobiy ta'siri natijasidir.

Tajribada har bir navning otalik va onalik gullarini gullash davomiyligi bo'yicha changlatish ishlari olib borildi. Bunda har bir navni yaxshi rivojlangan o'simliklari otalik va onalik gullari insux, ya'ni o'zini - o'ziga chatishtirib toza urug' olish uchun ximoya qilindi.

3.1.1-jadval.

Bodring nav namunalari urug'larining dala unuvchanligi va o'suv davri davomiyligi
(2021-2022 yy.).

Nav namunalari	10 %	75 %	Urugʻlarni dala unuvchanligi, %	10%	75%
	Urugʻlarni unib chiqquncha ketgan vaqt, kun			onalik gullarni gullashi	
Margʻilon 822	6	8	89	35	40
Ranniy 645	6	8	86	31	35


Otalik va onalik gullarni himoya qilish (izolyatsiya) ishlari kunning tushlikdan keyin

kechki tomon olib boriladi, ya'ni xar bir o'simlikdagi otalik va onalik gullarini toza paxta va qog'ozli qalpoqchalar bilan himoya qilinadi va keyingi kuni ertalab 6-00 dan 11-00 gacha changlatish ishlari olib borildi.

Bodring nav namunalarini gullarini changlatish uchun xar bir o'simlikda bir onalik gulga ikki otalik gullarini himoyalab so'ng changlatish ishlari olib borildi (1-rasm).



1-rasm. Bodring o'simligi onalik gullarini himoyalash jarayoni.



2-rasm. Bodringni onalik gullarini changlatish va ularga yorliqlar ilish.

Tajribada biometrik o'lchovlar olib borildi. Bunda o'simliklarni yer ustki qismini o'sish va rivojlanishi kuzatildi (3.1.2-jadval)

3.1.2-jadval.

Bodring nav namunalarini yer ustki qismini o'sish va rivojlanishi (2021-2022 yy.).

Nav namunalari	Asosiy poyaning uzunligi, sm	Yon shoxlar soni, dona	Yon shoxlarning umumiy uzunligi, sm	Barglar soni, dona
Marg'ilon 822	165	6,0	445	91,2
Ranniy 645	161	5,6	393	85,4

Xulosa

Bodringni har ikki navlari o'simliklarning o'sish va rivojlanishida sezilarli farqlanish bo'lgan.

Bodring urug'lik uchun yetishtirilganda gektardagi o'simliklar soni 23809 donani tashkil etib, qatordagi o'simliklar orasi 40 sm da joylashgan. Har ikki navning asosiy poyasining uzunligi, yon shoxlar soni va umumiy uzunligi hamda barglar soni xisoblab chiqildi.

Biometrik o'lchov ko'rsatkichlari o'simliklarni oziqlanish maydoni, assimilyatsion yuzasi xamda quyoshdan foydalanish koefitsenti kabi omillarga bog'liq bo'lgan.

Tajribada urug'lik bodringni sun'iy changlatilgandan so'ng parvarishlash tadbirlari olib borildi. Bunda o'simliklarni uch marta begona o'tlardan tozalab chopiq qilish, sug'orish va kasalliklar, zararkunandalarga qarshi ishlov berish ishlari olib borildi. Urug'lik bodring o'simligi palaklari pushtalarga 2-3 marta tugrilanib egat ichiga tushib qolishidan saqlandi. O'simlikdagi urug'lik mevalar rivojlanishi bilanoq oziqlantirish meyori oshirildi. Urug'lik bodring o'suv davri davomida 3 marta oziqlantirildi, ya'ni 2-3 chinbarglik davrida, otalik gullarni gullashidan avval va urug'lik mevalarni yetiltirish davrida berildi.

O'simlikning asosiy poyasi, yon shoxlari palaklarni to'g'rilash natijasida qator orasiga ishlov berish va o'lchov ishlar osonlashdi. Urug'lik mevalarni rivojlanishi kuchaydi.

Xulosa

Bodring urug'larni unib chiqqandan to otalik va onalik gullarini 10 va 75% ga paydo bo'lishi kuzatildi. Tajribada onalik gullarini 10 foizga gulashi Marg'ilon 822 navida 35 kunni, Ranniy 645 navida 31 kunni tashkil etdi. O'simliklarni onalik gullarini 75 foiz gulashi esa Marg'ilon 822 navida 40 kunni, Ranniy 645 navida 35 kunni tashkil etgan.

9. Tajribada Marg'ilon 822 navi o'simligi asosiy poyasining uzunligi 165 sm, yon shoxlar soni 6,0 ta ni, umumiy uzunligi esa 445 sm ni va barglar soni 91,2 donani tashkil etgan. Ranniy 645 navidagi bu ko'rsatkichlar nisbatan karoq bo'lgan. Bunda o'simlikni asosiy poyasining uzunligi 161 sm, yon shoxlar soni 5,6 ta ni, umumiy uzunligi esa 393 sm ni va barglar soni 85,4 donani tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. V.I.Zuev, A.G. Abdullayev, A.A. Ataxajayev "Praktikum po ovoshevodstvo zashishennogo grunta" Mehnat-1991.
2. V.I.Zuev, A.A. Ataxajayev, O.Qodirxo'jayev "Himoyalangan yerlarda ko'chat va sabzavotlarni yetishtirish" Noshir-2010.
3. G'.A.Samatov, J.Y.Yodgorov, Z.T. Siddiqov "Issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish" Toshkent-2007
4. T.E.Ostonaqulov, V.I.Zuev, O.Q.Qodirxo'jayev "Sabzavotchilik" Toshkent-2009.